



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



MUMTOZ SHE'RIYATDA KUZ TASVIRINING AKS ETISHI

Quvonch Mamiraliyev,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsent v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17268159>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz she'riyatida kuz tasvirining ifodalanishi bayon etilgan. Shuningdek, mumtoz she'riyatimizda kuz faslining badiiy talqini, undagi tasviriy vositalar va timsollar tahlil qilinadi. Adabiy an'analarda kuzning ramziy ma'nolari, xususan, hayotning so'nishi, inson umrining poyoniga ishora, g'am va hijron manzaralari bilan bog'liq badiiy obrazlar yoritiladi. Shu bilan birga, mumtoz shoirlar ijodida kuz nafaqat hasrat, balki falsafiy mushohada, voqelikni idrok etish hamda ilohiy hikmatlarni anglash vositasi sifatida ham namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy singari shoirlarning asarlaridan namunalar tahlil qilinib, kuz tasvirining poetik xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Mumtoz she'riyat, kuz tasviri, badiiy timsol, ramz, poetik mahorat, falsafiy mushohada, lirika, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy.

Abstract: This article describes the depiction of autumn in Uzbek classical poetry. Additionally, it analyzes the artistic interpretation of autumn, its figurative devices, and symbols in our classical poetry. The symbolic meanings of autumn in literary traditions are highlighted, particularly the artistic images associated with the fading of life, allusions to the end of human existence, and scenes of grief and separation. Furthermore, it is demonstrated that in the works of classical poets, autumn is manifested not only as a source of sorrow but also as a means of philosophical contemplation, perception of reality, and understanding of divine wisdom. The study analyzes examples from the works of poets such as Alisher Navoi, Babur, and Ogahi, exploring the poetic features of autumn imagery.

Keywords: Classical poetry, depiction of autumn, artistic symbol, symbolism, poetic mastery, philosophical contemplation, lyric poetry, Alisher Navoi, Babur, Ogahi.

Аннотация: В данной статье рассматривается изображение осени в узбекской классической поэзии. Анализируется художественная интерпретация осени в нашей классической поэзии, используемые образительные средства и символы. Освещаются символические значения осени в литературных традициях, в частности, художественные образы, связанные с угасанием жизни, намеком на конец человеческого существования, картинами печали и разлуки. Вместе с тем отмечается, что в творчестве классических поэтов осень проявляется не только как время скорби, но и как средство философского размышления, восприятия действительности и постижения божественной мудрости. В исследовании анализируются образцы произведений таких поэтов, как Алишер Навои, Бабур, Огахи, изучаются поэтические особенности изображения осени.

Ключевые слова: Классическая поэзия, образ осени, художественный символ, символ, поэтическое мастерство, философское размышление, лирика, Алишер Навои, Бабур, Огахи.

O'zbek mumtoz adabiyotida uzoq asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir qancha obrazlar mavjud, shoirlar o'z asarlarida to'rt faslni ham inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ularni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan,



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



ular tabiat manzaralaridan tashqari insonning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va faslafiyl g'oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu fasllardan biri – kuz. Kuz fasli o'zining oltinga qiyos bo'lgan barglari, yoqimli shabadasi va inson ruhiyatiga chambarchas bog'liqligi bilan boshqa fasllardan alohida ajralib turadi. Shoirlar odatda o'z she'rlarida mana shu xususiyatlardan xususan, osmonning xiralashuvi, barglarning to'kilishi, gul va xazonlarning ranglarini yo'qotishidan ko'proq foydalanadi. Bu o'xshatishlar orqali o'sha davrlarda insonlarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Bundan tashqari, mayin esayotgan shamolda to'kilyotgan barglar, havoning mo'tadilligi va buning natijasida yuzaga kelgan horg'in tabiat insonning ruhiyatiga ta'sir etadi. Natijada, ko'plab shoirlar mana shu holatdan ta'sirlanib, o'z she'rlarida mana shunday tasvirlardan foydalanishgan.

Mumtoz she'riyatda kuz fasli, odatda, sokinlik, xotirjamlik, ajralish, unga mos ruhiy tushkunlik va eng ko'p hollarda o'tkinchilik timsoli sifatida talqin etilgan. Bu bir tomondan, tabiatda barglar to'kilishi, gullarning so'lishi, salqinlikning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson umrining „pishgan davri“, ya'ni o'rta yoki kechki hayot bosqichlari bilan ramziy aloqadorlikni ko'rsatadi. O'zbek mumtoz she'riyatida ifoda etilgan yil fasllarining timsoliy ma'nolarini bir qancha olimlar tadqiqot qilgan. Jumladan, adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov Alisher Navoiy she'riyatida yil fasllari tasviri haqida fikr yuritar ekan, yozadi: „Peyzaj lirikasining haqiqiy namunalari hisoblangan g'azallarda shoir tabiat tasviridan lirik qahramonning ruhiyati va kechinmalarini ochib berishda bir fon sifatida foydalanadi. Aniqrog'i, tabiat tasvirida har bir detal lirik qahramon holatini ma'lum tomonini ochib berishga xizmat qiladi“ [4:96]. Ko'rinadiki, shoir g'azallarida fasllar obrazi lirik qahramonning ruhiyati va kayfiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

N.Komilov Navoiy qasidalari haqida fikr yuritar ekan, yozadi: „Foniy „Fusuli arabaa“ („To'rt fasl“) nomi bilan yana to'rtta forsiy qasida yozib, ularda yil fasllarining har biriga xos xususiyat va buning inson ruhiyatiga ta'sirini tasvirlagan“. [5:192]. Haqiqatan, mumtoz she'riyatda yil fasllari obrazi inson ruhiyatini ifoda etuvchi badiiy vosita vazifasini bajargan. Olim „Fusuli arbaa“ haqidagi fikrlarini davom ettirib, quyidagilarni qayd etadi: „Mana shu olami kubro (ulug' olam) bo'lgan inson vujudi to'rt unsurdan (havo, olov, tuproq, suv), odamning mizoji ham to'rt xil: issiq, sovuq, ho'l, quruq. Tabiat ham to'rt fasldan iborat: bahor, yoz, kuz, qish. Ushbu qasidada Allohning qudrati namoyishi bo'lgan to'rt fasl xususiyatlari bir-bir tasvir etiladi: bahordagi tabiat jonlanishi, gul, lolalarning barq urib ochilishi, yoqimli shamollar esishi, yomg'irning hayotbaxshligi va hokazo. Shu kabi yozning issig'iyu



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



saraton tafti, kuzning sokinligi, mudroqlasha borishi, pishiqchilik gashti, qishning shiddatli sovug‘i ham jonlantirib, inson tasavvuri va hissiyotlari idroki bilan bog‘lab tasvirlangan. Shoir bahorni yosh bola, yozni o‘spirin, kuzni yetuklik, balog‘atga yetgan odam, qishni umr adog‘i sifatida tashbeh etadi” [5:208]. Navoiy ijodida yil fasllari obrazini o‘rganishdan shu ma‘lum bo‘ladiki, ulug‘ shoir asarlarida tabiat fasllari tasviriga alohida e‘tibor qaratganligini kuzatish mumkin. Navoiyda fasllar tasviri ikki yo‘nalishda beriladi:

1. Asarda boshdan oxir fasllar tasviri aks etgan nazm namunalari ham mavjudki, bularga g‘azal va qasida kabilarni kiritish mumkin;

2. Shoir ijodida qo‘llangan janrlar qarida lirik qahramon kayfiyatiga muvofiq bahor, yoz, kuz va qish tashbehlantirilgan.

Har ikki holatda ham tabiat fasllari inson kayfiyati, quvonch va iztiroblariga o‘zaro parallel qo‘yiladi va uyg‘unlikda tasvirlanadi. Navoiy nazmida kuz – xazon faslining alohida o‘rni bor. Tabiatdan ma‘lumki, kuz tushkunlik, xazon, hayotning so‘ngi hisoblanadi. Shoir talqinidagi kuz esa ko‘proq mumtoz lirikada keng qo‘llanilgan hijron – „yoridan ayrilgan oshiq“ motivini ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi. Ta’kidlash lozimki, hijron motivi mumtoz shoirlarimiz ijodi doirasida ko‘p takrorlanuvchi poetik obraz bo‘lib, lirikada an’anaviy tarzda ishlatiluvchi „oshiq – yor – ag‘yor“, „kutayotgan oshiq – kelmagan yor“, „borlig‘ini unutgan oshiq – beparvo yor“ singari motiv obrazlardan sanaladi [1:180] va Alisher Navoiy ijodida juda ko‘p qo‘llangani bilan ahamiyatli. Ulug‘ shoir ijodida hijronni kuz fasli manzaralari va bu fasldagi tabiat hodisalari bilan yonma-yon qo‘yish hollari ko‘p uchraydi. Bu borada, „G‘aroyib us-sig‘ar“ devonida kuz fasli manzaralari aks etgan ikki g‘azal – 386 hamda 450-g‘azallar, ayniqsa, e‘tiborni tortadi. Bu she’rlarda shoir lirik qahramon holatiga muvofiq kuz tabiati manzarasini mahorat bilan chizadi:

Bog‘ mendek sarg‘arib, bulbul meningdek bo‘ldi lol,

Go‘yo mundoq bo‘lur bir guldin ayrilg‘ang‘a hol [3: 308].

G‘azal matlasidan ayon bo‘ladiki, she’rda hijron haqida so‘z boradi. „Sarg‘aygan bog‘“, gulidan ayrilgan bulbul“ va „yorsiz qolgan oshiq“ bir kayfiyat chizig‘ida birlashadi, uyg‘unlikda tasvirlanadi. Keyingi baytlarda shoir kuz faslida tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalarni ketma-ketlik bilan tasvirlaydi. Bu esa ma‘naviy san’atlardan tadrijning go‘zal namunasini hosil qiladi [4:58]. G‘azal asosiga qo‘yilgan kuz obrazi she’r so‘ngiga qadar izchillikda ochila boradi. Kuzning eng mayda tafsilotlaridan alohida xususiyatlargacha tadrijiy ravishda bo‘y ko‘rsatadi. O‘z navbatida, borliqdagi o‘zgarishlar lirik qahramon kayfiyatiga ham muvofiq keladi va uning ruhiy iztiroblarini aks ettirib keladi.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*Yerdagi yofrog‘ g‘aribu xoksor ar bo‘lmasa,
Men kibi ne vajhdindur yuzi sarig‘, ashki ol?*

Ko‘rinadiki, lirik qahramon kayfiyatining keyingi tashbehi – kuzda sarg‘aygan barg. U hijron dardida sarg‘aygan oshiq holatini ifoda etadi. Bargdagi sariqlik iztirobdan sarg‘aygan yuzga o‘xshatilgan bo‘lib, tashbehi mutlaq hisoblanadi [1:322]. G‘azalning keyingi misralarida sarig‘ yuz va ko‘z yosh boshqacha ifodada beriladi:

*Bu sarig‘ ruxsor uza har sari ashkim o‘xshashur
Bir xazonlig‘ bog‘ ichinda har taraf ravshan zulol.*

Shoirning hijronida to‘kkan ko‘z yoshlari xazonli bog‘dan oqib o‘tuvchi suvga qiyoslanadi. Navoiyning sinchkov nigohidan kuzda oqadigan suvlarning tinib qolishi ham chetda qolmaydi. Keyingi baytda kuz fasli falsafiy xulosa chiqarishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shoir nazdida, ortiqcha sarkashlik va nozdan foyda yo‘q. Zero, bog‘ kuz xazonidan omon bo‘lmagani kabi yoshlik, go‘zallik va husn ham o‘tkinchidir:

*Bu chaman ra‘nolari sarkashlik etgandin ne sud
Kim, xazon torojidin emin emastur bir nihol.*

Hayotimiz davomida fursatni qadrlash, umrni mazmunli o‘tkazish, adabiyot va san‘atning, umuman hayot falsafasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kelmoqda. „Albatta, umrning lahzasini g‘animat sezib xush o‘tkazish - bu donolik va donishmandlikning asosiy xususiyatlaridandir“ [2:132]. Faylasuf shoir sifatida hazrat Navoiy buni juda teran anglaydi va kuz fasli vositasida aytilgan yuqoridagi singari mazmunan yetuk bayt mumtoz she‘riyat javohirlari qatidan mustahkam o‘rin olgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida kuz manzaralari to‘g‘ridan to‘g‘ri tilga olinmasada, fasllar obrazlarida ko‘p hollarda qiyosiy ramz sifarida ishlatishini keltirish mumkin. Ayniqsa, g‘azallarda gul va bog‘larning so‘lishi, bahorning o‘tishi, bog‘bonning g‘amga botishi orqali kuz manzaralari bilvosita ifoda etiladi. Bunday obrazlar orqasida hayotning o‘tkinchiligi, muhabbatning vaqtincha quvonch ekanligi, ajrashuv va ayriliq g‘oyalari mavjud ekanligi yotadi. Natijada, qahramonning ruhiy holati va kechinmalarini tushunib olish o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi va aynan mana shunday mohirlik bilan lirik va nasriy asarlarini ravon va tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan. Bundan tashqari, Navoiy she‘riyatida kuz obrazining bevosita emas, lekin epistemologik anglanadigan ko‘rinishlarini ko‘ramiz. U tabiat hodisalarini lirik qahramonning hayotiy yo‘li bilan paralellashtirib, biror kechinmaning yoki ruhiy holatning ramzi sifatida o‘z asarlarida ishlatadi.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademiya, 2010.
2. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. III tom. Xazoyin ul-maoniy: G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan, 1988.
4. Is'hoqov Yo. So'z sa'nati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. Filol. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ...diss. –Toshkent: 2024.
7. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. – Toshkent: Anorbooks, 2024. <https://journal.fledu.uz/uz/ozbek-sheriyatida-shakli-izlanishlar-va-individuallik/>
8. Quvonch Mamiraliyev. (2022). Genre Modification in Uzbek Poetry of The Independence Period. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(3), 115-119. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1916>
9. Q.Mamiraliyev. Some Reviews on The Mutation of Genres in Uzbek Poetry. (2021). International journal for Innovative Engineering Management Research. Volume 10, Issue 03, Pages: 92-98. <https://ijemr.org/public/uploads/paper/634741613321866.pdf> (DOI: [10.48047/IJEMR/V10/I03/22](https://doi.org/10.48047/IJEMR/V10/I03/22))
10. Zebo Sabirova Zokirovna. (2021). Soul Is the Center of Confession. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 608–612. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/407>
11. Sabirova Zebo Zokirovna, & Madaliev Yarmukhammad Khudaybergenovich. (2024). On periodication of the literary process (about modern uzbek poetry). European Journal of Humanities and Educational Advancements, 5(10), 17-20. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/4780>
12. Mamiraliyev, Q. (2025). Folklorism in the poetry of the independence period. Bulletin of Pedagogs of New Uzbekistan, 3(2), 100–105. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45025>